

## Bola tarbiyasidagi pedagogik va psixologik xatolar

Guliston davlat pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti pedagogika  
yo`nalishi 1-kurs talabasi  
**Ummatov Jamshid Shuxrat o`gli**

**Annotatsiya:** Bola tarbiyasidagi pedagogik va psixologik xattolarni bartaraf etish haqida.

**Kalit so`zlar:** Bola, psixologiya, pedagogika, Oila, ota-onा va bola munosabatlari, me`yor, tarbiya, kelajak.

### KIRISH

**Bolalar psixologiyasi** — psixologiya sohasi, bolalar psixologik rivojlanishining umumiy va alohida xususiyatlarini, turli yosh bosqichlarida bu jarayon qanday kechishi, uni harakatlantiruvchi kuchlar va qonuniylatlarni tadqiq qiladi. Shu sababli bolalar psixologiyasini ko`pincha "Yosh psixologiyasi" deb ataydilar.

Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va h. k.) paydo bo`lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o`yinlar, o`qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o`rganadi. Bolalar psixologiyasi umumiy psixologiyada ishlab chiqilgan tadqiqot usullaridan foydalanadi, biroq uni qo`llashning o`ziga xos xususiyatlari bor. Bola shaxsi yosh xususiyatlarini o`rganishda ko`ndalang, kesma va longevityud deb nomlangan tadqiqotlar o`tkaziladi.

Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o`zi bir vaqtida turli yosh guruuhlariga taalluqli bo`lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinci holat (longityud) da esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko`p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o`z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo`lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo`lgan e'tiborlarini his qildirish. Mumkin bo`lgan va mumkin bo`lmagan holatlar o'rgatiladi.

Bola dunyoni, atrofni ota-onা ko`zlari bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo`lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-onা kimni xush ko`rsa, bola uchun u

inson yaxshi bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati - bu ko'zgudagi sizning aksingiz.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Psixolog olim

V.I.Selivanov fikrlarini keltirib o'tsak - "baxtli bolalik bu oiladagi quvonchni,

hamjihatlikni hamda ota-onalarning bolalariga g'amxo'rligining samarasidir". Biz bilamizki, inson xato qilish xususiyatiga ega. Oilada ota-ona ham farzand tarbiyasida bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yadi.Ota-ona yo'l qo'yadigan xatolarni keltirib o'tsak.

Bola tug'ilganidan boshlab ota-onasining bag'rida voyaga yetadi. Bola ulg'aygan sari taqlid qilishni, ota-onasining harakatlarini bajarishni boshlaydi. Ya'ni bola ko'radi, bola qaytaradi. Oilada ota-ona nima harakat qilsa bola o'shani bajaradi. Agar oilada ota-ona bir-birini hurmat qilsa, to'g'riso'z, xushmuomala, mehribon bo'lsa, bola ham xuddi shunday bo'ladi. Aksincha, oilada o'zaro hurmatsizlik, turli xil kelishmovchiliklar, ziddiyatlar bo'lsa, bu bolaga ta'sir qiladi.

U ham ulg'ayganda turli xil zo'ravonliklarni amalga oshirishi mumkin. Agar bunday oilada ota-ona farzandiga to'g'ri yo'lida yurishni maslahat bersa,bu hol ularning o'zida mavjudligini aytib, ota-onasining gapiga qulq solmasligi mumkin.

Unutmang farzandingiz umumlashgan ko'ra amallaringizni ko'proq bajaradi.

Shuning uchun oilada farzandingizga o'rnak bo'lish uchun avvalo o'zingiz

tarbiyalangan bo'lishingiz kerak.

Farzand tarbiyasida ota-ona yo'l qo'yadigan eng katta xatolardan biri bu-

bolani urish. Oilada bolaga turli xil tazyiqlar o'tkazilsa, ular ham atrofdagilarga tazyiq, ziyon yetkazishi mumkin. Bunday hollarda bolalar muammoni kuch bilan hal qilish mumkin degan fikrda bo'ladi. Ular turli

xil tazyiqlar orasida o'sganligi sababli, ulg'ayib o'z oilasini qurganda ham xuddi shunday zo'ravonliklarni amalga oshiradi. Bu kabi xatoliklar avloddan-avlodga o'tibborsa, butun bir kelajak yovuzlik to'riga tushib qoladi. Shu sababli

butun jamiyat aziyat chekmasligi uchun oilada turli xil munosabatlarni, muammolarni murosayo'li bilan hal qiling.

Shu bilan birga farzandiningiz oldida boshqalar bilan urish qilmang, boshqa insonlar to'g'risida yomonlab gapirmang. U bu kabi holatlarni ko'rsa dunyoda yomon odamlar ko'p ekan degan xulosaga kelib qoladi.

### **MUHOKAMA**

Hozirda ko'plab ko'rsatuvlar borki, ular sabab bolajonlar chet tillarini tez va oson o'rghanishlari, dunyo va atrof-muhit haqida qiziqarli tarzda tushuncha hosil qilishlari mumkin. Bular albatta bolajonlarning aqliy tarbiyasi uchun foydali omil hisoblanadi.

Ammo, xuddi pichoq kabi, televizor ham to'g'ri foydalanilmasa, qattiq "jarohat" yetkazishi mumkin. Shunday ekan, biz bolalarimizga televizordagi har qanday ko'rsatuvni ko'rsatishimiz to'g'ri bo'larmikan?! O'z bolasining televizor tagidan ketmay o'tirishiga rozi bo'lgan ota-onalar bolalarining tarbiyasini ham televizorga topshirib qo'ygan bo'lishadi. Yaxshilab mulohaza qilinsa, bugungi bolalar uchun chiqarilayotgan ko'rsatuvlar, multfilmlar va badiiy filmlar bundan 20 yil avvalgilaridan tubdan farq qiladi. Axloqiy buzuq holatlarning ochiqdan-ochiq bolalar uchun tayyorlangan multfilmda ko'rsatilishi, tanasi ochiq ayollar, buzg'unchi va zo'ravon odamlarni bolalarga ko'rsatishdan nima naf? Bu bolajonlarning jinsiy va hissiy tarbiyasini buzadi-ku..!

Zo'ravonlik va shahvoniyat shaytonning ikki quroli, chunki bu ikkovi kishi ruhiyatiga juda qattiq ta'sir qiladi va bu ikkisi orqali u qalbni oson qoraytira oladi.

### **NATIJA**

Davlat ta'lim standartlarida qadriyatlar haqidagi bilimlar bugun ta'lim muddati mobaynida va uning hamma shakllarida berilishiga alohida ahamiyat berilgan. Shunday ekan, har bir yoshni ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda badiiy adabiyotni o'qishga ishtiyoq uyg'otish, qo'shiq aytish, raqs tushish, rasm chizish malakalarini tarkib to'tirish, rang tasvirlar, musiqa asari, me'morchilik, teatr to'g'risida tushunchalar hosil qilish, tarixga qiziqtirish muhim ahamiyatga ega. Yoshlami ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda adabiyot darsi davr bilan hamnafas bo'lishi zarur. Adabiyot darsi o'z fani asoslarini o'rgatish bilan birga yoshlar uchun hayot darsiga aylanashi, ularni hayotga tayyorlashi lozim. Hayotni o'rghanishda adabiyot yoshga eng yaqin yordamchi bo'lishiga erishish lozim. Yosh adabiyot

fanida adabiy asarlarni o'rganish orqali milliy qadriyatlarni o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafakkirlari ham tahkidlab o'tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak. Ota-ona va tarbiyachilar bolalarni to'g'ri o'sishlari, aqliy va axloqiy, ma'naviy, estetik jihatdan tarbiyalashga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Buning uchun asosan o'yinlar va ertaklar asosida axloqiy tarbiya berish mumkin, chunki bu yoshdagi bolalar asosan o'yin faoliyatida bo'ladi, o'yinlarning rang-barang bo'lishi va jamiyatimiz maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etish juda muhim.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda hozirgi kundagi bolardagi psixik va pedagogik muommolarni xal qilishda juda kõp ishlar amalga oshirilmoqda. Bulardan birinchisi bolani oilada ota-onasi tarbiyalsh hisoblanadi. Chunki bola asosiy vaqtini oila davrasiaa õtkazadi. Shuning ichun ham Prezidentimiz oilalarga alohida e'tibor qaratmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga kõtaramiz.
2. Vasila Karimova "Psixologiya", [Toshkent](#), 2000.
3. Foziev E. "Umumiyl psixologiya" 1-kitob, Toshkent, 2004
4. "Psixologiya atlasi" M.Gomezo tahririda Moskva 1986
5. Nishonaliyev U. Ta'lim standarti va pedagogik innovatsiyalar. // Xalq ta'limi. 1999. № 6. 28-31 b.
6. Ta'limda yangi pedagogik texnologiyalar: muammolar, yechimlar. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: 1999. - 212 b